



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 98-106 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### IQTISODIY RESURLARSDAN SAMARALI FOYDALANISH – BARQAROR IQTISODIYOTNING MUHIM OMILI SIFATIDA



**Suvpo'latov Ozodjon Alijon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasasi assistenti

e-mail: [suvpulatovozod@gmail.com](mailto:suvpulatovozod@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada milliy iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari o'rganilgan, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalari keng yoritilgan. Bundan tashqari aynan iqtisodiy resurslar borasida ish olib borgan iqtisodchilarning ham nazariy qarashlari keltirilgan shuningdek maqolaning asosini tashkil qilgan iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirish va shu orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash bo'yicha bugungi kunda qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Bu maqola iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning barqaror iqtisodiyotning muhim omili sifatida ko'rib chiqilgan. Muammolar, to'g'ri foydalanish, ehtiyotkorlik va qo'shimcha faktorlar, masalan, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar kabi muhim masalalar ko'rib chiqilgan. Usul, aniq ma'lumotlarga, ilmiy tadqiqotlarga va statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Natijalar, samarali resurslar foydalanishining o'zgarishlarga, iste'mol koeffitsiyentlariga va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Muhokama qismida, iqtisodiyotning turli sohalarida resurslardan samarali foydalanishning muhimligi va uning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, turmush darajasi, aholi farovonligi, iqtisodiy rivojlanish omillari, iqtisodiy rivojlanish mezonlari, barqaror iqtisodiyot, ilg'or iqtisodiyot.

### ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОЙ ЭКОНОМИКИ

**Аннотация:** В статье изучены закономерности развития национальной экономики, широко раскрыты понятия экономического развития и экономического роста. Кроме того, также представлены теоретические взгляды экономистов, занимавшихся экономическими ресурсами, а также предложения о том, что следует делать сегодня для повышения эффективности использования экономических ресурсов, которые легли в основу статьи, и тем самым обеспечить устойчивый рост экономики, даны рекомендации. В данной статье эффективное использование экономических ресурсов рассматривается как важный фактор устойчивой

экономике. Рассматриваются важные вопросы, такие как проблемы, правильное использование, осторожность и дополнительные факторы, такие как социальные и политические изменения. Метод основан на конкретных данных, научных исследованиях и статистических данных. Представлены результаты, информация о влиянии эффективного использования ресурсов на изменения, коэффициенты потребления и экономическое развитие. В дискуссионной части внимание акцентируется на важности эффективного использования ресурсов в различных отраслях экономики и его особенностях.

**Ключевые слова:** экономическое развитие, экономический рост, уровень жизни, население благосостояние, факторы экономического развития, критерии экономического развития, стабильная экономика, развитая экономика.

## EFFECTIVE USE OF ECONOMIC RESOURCES AS AN IMPORTANT FACTOR OF SUSTAINABLE ECONOMY

**Abstract:** In the article, the development laws of the national economy are studied, the concepts of economic development and economic growth are widely covered. In addition, the theoretical views of economists who have worked on economic resources are also presented, as well as suggestions on what should be done today to increase the efficiency of economic resources, which formed the basis of the article, and thereby ensure the sustainable growth of the economy. recommendations are given. This article considers the effective use of economic resources as an important factor of a sustainable economy. Important issues such as problems, appropriate use, caution and additional factors such as social and political changes are considered. The method is based on concrete data, scientific research and statistical data. Results, information on the effect of effective resource use on changes, consumption coefficients and economic development are presented. In the discussion part, attention is focused on the importance of effective use of resources in various sectors of the economy and its specific features.

**Key words:** economic development, economic growth, standard of living, population welfare, factors of economic development, criteria of economic development, sustainable economy, advanced economy.

### Kirish

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash muammosi har qanday davlat uchun dolzarb hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari oldiga milliy iqtisodiyotning dunyoga o'zaro manfaatli integratsiyasini ta'minlash, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va shu orqali xalq farovonligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'ZBEKISTON – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" yo'nalishining belgilab berilishi ham resurslardan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki qadam desak mubolag'a bo'lmaydi [1].

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda iqtisodiyotning turli sohalarida yutuqlarga erishishga imkon beradigan, raqobat jarayonlarini boshqarish mexanizmlari adolat tamoyillariga asoslangan, insonning

intellektual va jismoniy qobiliyatlari rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqaruv tizimiga ega mamlakatlar jamiyat hayotining barqarorligi va yuqori sifatini ta'minlab kelmoqdalar.

Milliy iqtisodiyotni boshqarish uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Iqtisodiy rivojlanish to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun esa eng avvalo ushbu tushunchaga oid nazariyalarni chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan ma'lumki, har qaysi iqtisodchi olim nazariyalarining asosida ishsizlikni kamaytirish, narxlar barqarorligini ta'minlash va shular yordamida barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish, jamiyat hayoti farovonligini ta'minlash yotadi.

Iqtisodiy resurslar, davlat va jamiyat uchun asosiy boylik hisoblanadi va ularning samarali foydalanishi barqaror iqtisodiyotning keng qamrovli rivojlanishi uchun juda muhimlikka ega. Bu maqola, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning barqaror iqtisodiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy faoliyat shakllari va rivojlanishning belgilariga ega bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy resurslarning ma'lum vaqtincha cheksizligini tashkil etadi. Bu resurslar, to'qimalar, yoritgichlar, vaqt, inson kuchlari, va iqtisodiy infratuzilma kabi shakllarda kelib chiqadi. Ular tadbirkorlik, sanoat, yoki xizmatlarni takomillashtirish uchun yoki har bir sohada amalga oshirilgan ishlar uchun ishlab chiqarishni ta'minlashda ishlatiladi. Bunday resurslardan samarali foydalanish, daromad oshirish, ishlab chiqarishning sifatini oshirish, va jamiyatning ma'naviy-axloqiy muammolarini hal qilish uchun zarurdir. iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning qanday qilib iqtisodiyotiy rivojlanishga o'z ta'sirini ta'kidlaydi va ularning davlat siyosati, korxonalar va jamiyat tomonidan qo'llanilish ko'rsatkichi sifatida muhokama qiladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Zamonaviy iqtisodiy nazariyaning asoschilaridan biri, klassik siyosiy iqtisod maktabining taniqli vakili Adam Smit o'z tadqiqotlarida jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. A.Smit yashagan davr XVIII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelganini inobatga olgan holda aytamizki, u jamiyatni uch sinfga – kapitalist, ishchi va yer egalari sinfga ajratgan. Har bir sinf kapital, mehnat, yer kabi ishlab chiqarish omillari va foyda, ish haqi, renta kabi daromadga ega bo'lib, ular o'rtasida hech qanday qarama – qarshilik yo'q deb izohlaydi. Smit qiymatning mehnat nazariyasini yanada rivojlantirib jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonidagina mehnat tufayli paydo bo'ladi, iqtisodiy rivojlanishning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan xulosaga keladi.

Adam Smit o'z asarlarida jamiyatga foyda keltiruvchi faoliyatni biror bir harakat bilan cheklamaslik kerak degan tamoyilni ilgari suradi. Bu tamoyilga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

- ishchi kuchining erkin harakati;
- savdoda to'la erkinlik;
- sanoat va ichki savdoni xukumat tomonidan tartibga solinishiga qat'iy qarshilik;
- erkin tashqi savdo (proteksionizmga qarshi)

Smit foyda normasi va foizning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va «millatning ravnaqi» ko'rsatkichi deb xarakterlaydi. U ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy erkinlikni

ta'minlashni, davlatning iqtisodiy hayotga aralashmasligini talab qiladi. Ammo u mamlakatning mudofaa manfaatlarini iqtisodiyotdan ham ustun bo'lishi mumkin degan fikrda bo'lgan, ya'ni bu ba'zi paytlarda davlatning iqtisodga aralashuvi zarur deganidir. Smit iqtisodiyotda davlat sektorining samarasizligini ko'rsatib, «hukumat har doim va istisnosiz buyuk isrofgarchidir»[2] deydi. Shu sababli davlatning faqat uch funksiyasini tan oladi: huquq-tartibot; mamlakat xavfsizligini ta'minlash; jamiyatga zarur bo'lgan (ammo xususiy sektor tomonidan tuzilmagan) ijtimoiy korxonalar va muassasalarni ta'minlash.

Smit zamonaviy davlatning soliq siyosatining nazariy asoslarini ham yaratdi. Soliqlar fuqarolarning kuchi va imkoniyatiga mos kelishi, ishga yaroqli har bir kishiga alohida belgilanishi kerak, soliq imkoni boricha arzon, uning shakli va olinish vaqti esa to'lovchi manfaatiga mos kelishi zarur, deb hisobladi.

A.Smitdan so'ng iqtisodiy bilimlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan, yalpi talab, yalpi taklif, milliy daromad, iste'mol, jamg'arma, baho, foiz stavkasi va boshqa shu kabi iqtisodiy dastaklarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilgan iqtisodchi olim Jon Meynard Keyns ham o'z asarlarida iqtisodiy rivojlanishga erishish va jamiyat farovonligini ta'minlashga oid fikrlarini keng bayon qilib o'tgan. U Kembridj universitetida ikkinchi bir atoqli olim Kembridj iqtisodiy maktabining asoschisi A.Smit g'oyalarining mantiqiy davomchisi, mikroiqtisodchi olim A.Marshall qo'lida ta'lim oldi. Ammo uning izidan bormadi va o'ziga xos yo'nalishda nazariya yaratdi.

Uning bosh g'oyasi shundan iboratki, bozor iqtisodiy munosabatlari takomillashgan va o'zini -o'zi tartiblab turuvchi tizim hisoblanmaydi va shuning uchun faqat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ish bilan bandlikni maksimal oshirishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin.

Bu nazariya ustida ish olib borgan D.Rikardo, A.Pigu, K.Viksell kabi olimlardan farqli o'laroq Keyns ishsizlik va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari tasodifiy, o'z-o'zidan yuzaga keladigan hodisalar emas, balki bozor mexanizmi harakati tug'diradigan hodisalar ekanligini isbotlagani holda, birinchi marta iqtisodiyotni davlat tomonidan muntazam, uzluksiz ravishda tartibga solib turish zarurligini ko'rsatib beradi. J.M.Keyns bu bilan klassiklar tomonidan ishlab chiqilgan va o'sha paytda hukumron bo'lib turgan tartiblashning mikroiqtisodiy yondashuvini rad etdi. Firmaning (mikroiqtisod) rivojlanishi sharoiti bir butun milliy iqtisodiyotning (makroiqtisodiy) rivojlanish sharoitini belgilab bera olmasligini ko'rsatib berdi.

J.M.Keyns klassiklarning iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartiblash mexanizmini tanqid qilib, bozor iqtisodiyotida bunday mexanizm amal qilmasligini, iqtisodiyotni davlat yordamida tartiblash mumkinligini ko'rsatib, «davlat iste'molga bo'lgan moyillikka o'zining rahbarlik ta'sirini qisman muvofiq ravishdagi soliq tizimi, qisman foiz normasini belgilash yo'li bilan va ehtimol, boshqa usullar bilan o'tkazishi lozim bo'ladi», deb yozadi.

Fan-texnika taraqqiyoti, inson hayotining har bir jabhasida sodir bo'lgan kashfiyot hamda yangiliklar iqtisodiy bilimlar kengayishiga ehtiyoj paydo qildi va o'z navbatida iqtisodiy bilimlar rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyot tushunchasini bo'linishiga olib keldi. Iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalari alohida – alohida yuritila boshlandi.

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi aniq farqni ilk bor Y.Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida bayon qilib o'tdi. Ushbu ikki

tushunchaning orasidagi farqni uning soʻzlari bilan osonlikcha tushuntirish mumkin: "Pochta vagonlarini ketma-ket xohlagancha qoʻying – siz temir yoʻlda muvaffaqiyat qozona olmaysiz"[3]. Demak, iqtisodiy oʻsish – vaqt oʻtishi bilan bir xil tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va isteʼmol qilish hajmining koʻpayishi. Iqtisodiy rivojlanish – bu avvalo yangi, ilgari nomaʼlum boʻlgan narsaning paydo boʻlishi. Shumpeterning oʻzi iqtisodiy oʻsishni miqdoriy oʻzgarish, iqtisodiy rivojlanishni sifat oʻzgarishi deb taʼriflagan, bu ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalarni kiritish bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotning rivojlanishiga erishish uchun, avvalambor, miqdoriy emas, balki sifat koʻrsatkichlarida oʻzgarishlarga erishish kerak. [4] Bugungi kundagi holatda iqtisodiy rivojlanish Shumpeter taʼriflagandanda keng qamrovli tushuncha ekanligi maʼlum boʻlmoqda.

N.Qayumova bergan taʼrifga koʻra: "Iqtisodiy rivojlanish" kategoriyasi "iqtisodiy oʻsish" bilan chambarchas bogʻliq koʻp oʻlchamli va koʻp qirrali koʻrsatkich boʻlib, mamlakatda ijtimoiy institutsional va siyosiy oʻzgarishlar, aholining turmush darajasini, inson manfaatlarining qondirish saviyasini ifodalaydi. Darhaqiqat, "iqtisodiy rivojlanish" kategoriyasi "iqtisodiy oʻsish" tushunchasiga nisbatan keng maʼnoli hisoblanadi. Baʼzan iqtisodiy oʻsish yaqqol taʼminlangan holda "iqtisodiy rivojlanish" yuz bermasligi mumkin.

Demak, "iqtisodiy rivojlanish" inson manfaatlarini taʼminlash, hayotiy ehtiyojlarini qondirish, yashash sharoitini, meditsina xizmati, taʼlim olish, barkamol taraqqiy etish imkoniyatlarini oʻzida qamrab oladi". [5]

"Iqtisodiy rivojlanish" "oʻsish" tushunchasiga nisbatan keng qamrovli boʻlib, oʻz navbatida, ushbu holatning boshqa koʻrinishlarini ham qamrab oladi, yaʼni pasayish sabablarini, uni bartaraf etish yoʻllarini ham oʻsish bilan birga oʻrganadi. Shuningdek, mamlakat yoki aholi daromadlari oʻsishi jamiyat farovonligini baholashga tegishli tushunchalar boʻlib, iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalash uchun foydalaniladi. Oʻz oʻrnida iqtisodiy oʻsish rivojlanish uchun zamin yaratadi, yaʼni iqtisodiyotda turli soha va tarmoqlar rivojlanishiga sabab boʻladi. [6]

## TAHLIL VA NATIJALAR

Soʻnggi oʻn yil ichida firma yoki korxonada resurslarni tejash muammosi ayniqsa keskinlashdi. Mavjud korxonalami texnik qayta jihozlash yoki rekonstruksiya qilish - ulami resurslarni tejaydigan texnologiyalarga oʻtkazish zarur. Korxonada resurslarning doimiy aylanishi va oʻzgarishi bilan ulami tejash va samarali ishlatish juda muhimdir.

Resurslarni tejash-ishlab chiqarish omillaridan iqtisodiy va samarali foydalanish bilan bogʻliq chora-tadbirlar majmuidir. Barcha resurslar bir xil tezlikda aylanmaydi - baʼzilari ishlab chiqarish jarayonida toʻliq isteʼmol qilinadi, boshqalari, masalan, uskunalar-qisman va koʻp hollarda bir xil emas va ularning isteʼmol darajasi asosan ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish xodimlarining taʼsirining etarligi bilan belgilanadi.

Resurslarni tejash milliy iqtisodiyotning ularning oʻsishiga boʻlgan ehtiyojini asosan iqtisodiyot orqali qondirishni taʼminlaydi. Bu chiqindi gazlar va suv chiqindilaridan qimmatli mahsulotlarni qoʻlga kiritish, chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali resurslarni kompleks ishlatish, qazib olish, tashish va saqlash vaqtida yoʻqotishlarni bartaraf etish, qayta ishlash vaqtida chiqindilarni kamaytirish, ikkilamchi resurslar va boshqa mahsulotlarni xoʻjalik aylanmasiga kengroq jalb qilish orqali erishiladi.

Resursni tejashga rioya qilish texnologiya va texnologiya sifatining muhim xususiyati hisoblanadi. Agar ishlab chiqarish va ishlatish uchun kamroq mablag' sarflashni talab qilsa, texnika resurslarni tejash hisoblanadi. Resurs tejoychi texnologiya kam yoki chiqindilarsiz texnologiya deb ataladi. Resursni tejash zarurati ko'plab turdagi resurslarning etishmasligi, tabiatdagi zaxiralarning kamayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining sezilarli darajada oshishi va boshqa omillar bilan bog'liq.

Quyidagi jadvalda ma'lum bir mamlakat o'zining iqtisodiy resurslaridan foydalanib kapital va iste'mol tovarlar ishlab chiqarish imkoniyati keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki agar mamlakat 1.6 mln dona capital tovar ishlab chiqaradigan bo'lsa bor resurs imkoniyatlarini faqat capital tovar ishlab chiqarishi mumkin, iste'mol tovarlarga bo'lsa o'z o'rnida ko'rinib turganidek vaqt ham resurs ham yetmaydi. Endi keyingi vaziyatlarga e'tibor qaratsak mamlakat u boshqa vaziyatlarda o'zining resurs va vaqt imkoniyatlarini har ikkala capital va iste'mol tovarlariga sarflagandagi miqdorlarni ko'rishimiz mumkin.

1-jadval<sup>1</sup>

Vaziyatlar	Iste'mol tovarlar miqdori (mln dona)	Kapital tovarlar miqdori (mln dona)
A	0	1.6
B	1	1.4
C	1.6	1.2
D	2.2	0.8
E	2.6	0

Ishlab chiqarish korxonasi resurslarni tejash uskunalami ishlatishda moddiy va mehnat resurslarini sarflash tezligini oshirish omillarini o'z vaqtida aniqlash va maqsadli ta'sir ko'rsatishdan iborat. Ushbu jarayonlarni asbob-uskunalarning texnik holatini monitoring qilish va resurslarni tejash bo'yicha xodimlarning samaradorligi bilan ta'minlash mumkin.


Ilmiy va texnologik taraqqiyot-yangi bilimlarni kashf qilish va ularni jamoatchilik ishlab chiqarishida qo'llashning uzluksiz jarayoni bo'lib, mavjud resurslarni eng past narxlarida yuqori sifatli yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun yangi usullar bilan bog'lash va birlashtirish imkonini beradi.

2-jadval<sup>2</sup>

Vaziyatlar	Iste'mol tovarlar miqdori (mln dona)	Kapital tovarlar miqdori (mln dona)
A1	0	1.8
B1	1.2	1.6
C1	1.8	1.4
D1	2.2	1
E1	2.7	0

<sup>1</sup>Muallif tomonidan tuzildi<sup>2</sup>Muallif tomonidan tuzildi

Va aynan 2-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki bugungi kunda mamlakat miqyosida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish uchun ishlab chiqarish omillarini miqdor jihatidan emas balki aynan sifat jihatidan takomillashtirish talab etiladi. Bunga erishishning yo'llaridan biri bu albatta bu omillardan samarali foydalanishdir. Yuqoridagi jadvalimizda mamlakat miqyosidagi ishlab chiqarish avval A nuqtada bo'lgan va keyinchalik fan texnika yutuqlaridan foydalanish evaziga samaradorlikka erishish orqali A1 nuqtaga ko'chganini ko'rishimiz mumkin.



**1-rasm.** Ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigi<sup>3</sup>

Yangi texnologiyalar va texnologiyalami joriy etish juda murakkab va ziddiyatli jarayondir. Texnik vositalami takomillashtirish mehnat xarajatlarini, ishlab chiqarish birligining qiymatidagi mehnat ulushini kamaytiradi. Biroq, bugungi kunda texnik taraqqiyot "qimmatroq", chunki u qimmatroq mashinalar, chiziqlar, robotlar, kompyutemi boshqarish vositalarini yaratish va qo'llashni talab qiladi; atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlarini oshiradi. Bulaming barchasi ishlab chiqarish xarajatlarida qo'llaniladigan asosiy vositalami amortizatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining ko'payishini aks ettiradi. Texnologiya va texnologiya variantlarini tanlashda firma yoki korxon qanday vazifalami hal qilishni aniq tushunishi kerak-strategik yoki taktik-sotib olinadigan va amalga oshiriladigan texnika.

Muayyan ishlab chiqarish uchun "yangi texnologiya" tushunchasiga potensial yondashuv korxon yoki firma maqsadlariga qisqa vaqt ichida erishish imkoniyatini baholashdir. Shuning uchun, ma'lum bir ishlab chiqarish uchun yangi texnologiya eng ilg'or emas, balki mehnat unumdorligini va mahsulot sifatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

<sup>3</sup> Muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida nustaqil tuzildi

Shunday qilib, mavjud bosqichda ilmiy va texnologik taraqqiyotning eng muhim muammolaridan biri sanoatning barcha tarmoqlarida mahsulotlarning moddiy hajmini kamaytirish, xom ashyo va materiallardan foydalanishni yaxshilashga bog'liq omillarni har tomonlama o'rganishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda insoniyat hayot kechirishi mobaynida o'zi uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida tabiatga o'zi bilgan va bilmagan holda juda katta zararlar yetkazmoqda. Natijada noqulay iqlim sharoitlari yuzaga kelmoqda, bu o'z navbatida iqtisodiyotning qator sohalariga o'zining aks salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymayabti. Bunga biz bundan yarim yoki bir asr oldin yashagan insonlar va hozirgi avlod duch kelayotgan kasalliklar turlarini analiz qilish orqali ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Darhaqiqat, bugungi iqlim o'zgarishlari inson sog'lig'iga va umriga bevosita o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bu esa mehnatga layoqatli aholi sonini kamaytirgan holda, iqtisodiy rivojlanishga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Shu o'rinda, Iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi ekologik omillarga kishilar va iqtisodiy subyektlarning ekologik madaniyatini va mamlakatdagi ekologiya va atrof – muhit holatini kiritishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, iqtisodiyotdagi barcha jarayonlar bir – biriga chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy rivojlanish ularni o'zida jamlaydi. Jumladan, ishlab chiqarishning kengayishi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy o'sishga erishish iqtisodiy rivojlanishning bosh mezonini

hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun esa YaIM hajmi va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ulushining o'sishi, sifatining yaxshilanishi, tarkibining takomillashib borishiga erishish zarur. Bu kabi holatlar, bevosita inflyatsiya, ishsizlik, valyuta kursi, to'lov balansi va aholi turmush darajasiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Va aksincha, omillar ta'sirida iqtisodiy rivojlanish mezonlarining buzilishi yuqorida sanab o'tilganlarga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Demak, iqtisodiy rivojlanish – bevosita vaqt bilan bog'liq jarayon bo'lib, unga ta'sir qiluvchi siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik omillar natijasida turli davrlarda inqiroz, turg'unlik va rivojlanish kabi turlicha sikllarni o'zida aks ettirib boruvchi jarayon hisoblanadi.

Xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berib o'tmoqchiman:

1. Energiyani samarali ishlatish: Energiyani tejamkor va samarali foydalanish uchun alternativ energiya manbalariga e'tibor berish kerak. Muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, energiya sifatini oshirish, shuningdek, energiya taqsimoti va ishlab chiqarish jarayonlarida samarali qo'llanish amalga oshirilishi lozim.

2. Suv resurslarini muhofaza qilish: Suv resurslarini samarali foydalanishda bo'sh vaqtlardagi sarflashlar va israfni kamaytirish kerak. Bu maqsadga erishish uchun, suvni tejaratda bo'sh vaqtlarni oshirish, suvni kengaytirish va yangi suv manbalarini topshirishga yo'lni ochish kerak.

3. Tabiiy qayta ishlab chiqarishni ta'minlash: Tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarish bo'yicha samarali texnologiyalarni rivojlantirish va ularga investitsiya qilish



zarur. Bu qog'oz, plastik, metaldan tashqari boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish usullarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

4. Ekologik modellar va ijtimoiy talablarni yaratish: Ekologik modellar va ijtimoiy talablar samarali resurslardan foydalanishning qo'llanishi yo'llanishida muhim ahamiyatga ega. Ekologik usullar bilan ishlovchi va ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lgan tashkilotlar uzluksiz foydalanish va butun dunyo uchun ehtiyotkorlikni qo'llashadi.

Umuman olganda, iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik foydani ta'minlash kerak. Bu muhim mavzuga katta e'tibor berish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni
2. Ahmedov D.Q., Zaxidov G.E., Hajiyev B.D., Mambetjanov K.K. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik-T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2018. - 29 b.
3. J. Schumpeter, Capitalism, Socialism and Democracy, 864 (2010)
4. Schumpeter J.A. Теория экономического развития [Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung]. Moscow, Progress Publ., 1982, 455 p.
5. Qayumova.N.O. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt.fan.dok.dis. – T.:, 2012. 20-b.
6. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sifatini oshirishning dolzarb masalalari / Monografiya U.A.Madrahimov. – Toshkent: PMTI, 2016. 9 b.

### Internet manbalari

7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Internet>
10. <https://staff.tiame.uz/storage/users/939/presentations/q1bdIuvO4Bc2kYws1gUKDAslsuqQRWeROKsI3E68.pdf>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

